

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori _____ Sh.S.Sharipov
“8” 10 2024-yil

**10.00.01 – O'ZBEK TILI IXTISOSLIGI BO‘YICHA
DOKTORANTURAGA (DSc) KIRISH SINOVLARI
UCHUN “MUTAXASSISLIK” FANIDAN IMTIHON
DASTURI**

Dastur 10.00.01-O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha doktoranturaga kirish sinovlarini topshiruvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur dastur Jizzax davlat pedagogika universiteti “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrasining majlisida muhokama qilingan hamda tavsiya etilgan.


Mazkur dastur Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Kengashida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan

Tuzuvchi:



dots. S. Soyipov

Taqrizchi:



f.f.d, prof. A.Mamatov

f.f.d.(DSc), prof. U.Qosimov

KIRISH

Oliy ta’imdan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son Qonuni 34-moddasida («34-modda. Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari») Davlat ta’lim talablari ta’lim sohasidagi tegishli vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi belgilangan. Mazkur Qonunning 26-moddasida (“Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari”) ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlaridan biri sifatida — O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (hozirda - Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) belgilanganligi hamda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi O‘RQ-576-son Qonuni 6-moddasida (“O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatlari”) Innovatsion rivojlanish vazirligi (hozirda - Innovatsion rivojlanish agentligi) vakolatli davlat organi sifatida — ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtirishi belgilangan.

Oliy ta’limdan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi O‘RQ-576-son Qonuning tegishli bandlari ijrosini ta’minalash maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, Mazkur Nizom respublika oliy ta’lim muassasalarida oliy ta’imdan keyingi ta’lim tizimiga majburiy talablari, shuningdek umumiy qabul qilingan xalqaro standartlami hisobga olgan holda falsafa doktori (Doctor of Philosophy (keyingi o‘rinlarda PhD deb ataladi) va fan doktori (Doctor of Science (keyingi o‘rinlarda DSc deb ataladi) ilmiy darajalari izlanuvchilarining dissertatsiya ishi mazmuniga va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim — doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqr o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minalaydigan ta’lim turi;

Doktorantura – Fan doktori, (Doctor of Sciences (DSc) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqirishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli.

10.00.01 – O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha doktoranturaga kirish imtihoni ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashning tarkibiy qismidir.

Mazkur dastur o‘zbek tilining tarkibiy qismi bo‘lgan fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, leksikografiya, grammatika (morphologiya va sintaksis), morfemika, so‘z yasalishi, punktuatsiya, uslubiyat, til tarixi bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu dastur o‘zbek tilining tarkibiy qismidan olingan mavzular bo‘yicha bo‘lajak tadqiqotchilarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlash vazifasini ko‘zda tutadi.

Dasturning maqsadi-hozirgi kunda o‘zbek tili bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib bormoqchi bo‘lgan mutaxassislar uchun amaliy tilshunoslik, matn tilshunosligi, o‘zbek tili leksikologiyasi, sistem tilshunoslik asoslari, sintaktik nazariyalar, morfemik va morfologik nazariyalar, leksikani tizim sifatida o‘rganish, o‘zbek tili va uning tarixini chuqr bilishni taqozo etadi.

Shuningdek, u amaliy tilshunoslik, matn tilshunosligi, o‘zbek tili leksikologiyasi, sistem tilshunoslik asoslari, sintaktik, morfemik va morfologik nazariyalar, tilning ichki tuzilishi, vazifalari o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti va takomilini o‘zida mujassam etadi.

Dasturning vazifasi - amaliy tilshunoslik sohalarini o‘rgatish, til siyosatini anglash, lisoniy informatika haqida tushuncha hosil qilish, rasmiy uslubni milliylashtirish, nutq va til boyligi masalalari, lug‘atchilik va uning tarixi, kelajagi haqida, tilga munosabat, yozuv va uning taraqqiyoti kabi masalalarni yoritishdan iborat.

Fanlararo bog‘lanish - dasturda turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi, tilshunoslik nazariyasi, o‘zbek dialektologiyasi, til tarixi, hozirgi o‘zbek adabiy tili kabi fanlarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi asoslangan.

Dokturanuraga kiruvchilar uchun qo‘yiladigan talablar:

- tilshunoslikning bugungi taraqqiyoti va dolzarb vazifalarini chuqr bilish;
- tilning ichki tuzilishini tahlil qilish;
- tilning vazifalari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lish;
- amaliy tilshunoslik sohalarini o‘rganish;
- lisoniy didaktika va uning mohiyatini anglash;
- psixolingvistika asoslarini anglay olish;
- lingvomadaniyatshunoslik va pragmalingvistikating ilmiy va amaliy asoslaridan boxabar bo‘lish;
- tilshunoslikning ilmiy tadqiqot metodlari va metodologiyasini to‘g‘ri qo‘llay bilish.

- matn tilshunosligi muammolari borasida bilimga ega bo'lish.

1.O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Sistem-struktur tilshunoslik va o'zbek tilshunosligi. Tilning sistemaviy tabiat. Til va nutq dixotomiyasi. O'zbek tilshunosligining muammolari. O'zbek tilshunosligi va uning taraqqiyoti, dolzarb vazifalari. Antropotsentrik paradigma va o'zbek tilshunosligida uning qo'llanishi. Til birliklari va ularning ilmiy talqinlari. Til va nutq antinomiyasi. Til va nutq haqidagi ilmiy qarashlar. Tilshunoslikda so'z masalasi va u haqidagi nazariy qarashlar. O'zbek tilida so'z turkumlari tasnifi va bu boradagi nazariy qarashlar hamda muammolar. Tilshunoslikning tadqiq metodlari. An'anaviy va sistem-struktur tilshunoslik. Qiyosiy-tarixiy metod. Ilmiy lingvistik paradigmalar. Lingvopoetika va u o'rganadigan masalalar. O'zbek lingvopoetikasining vazifalari va muammolari. Paralingvistika. Pragmalingvistika. Psixolingvistika. Tilning tadqiq muammolari.

2. O'zbekiston Respublikasining o'zbek tilni rivojlantirish borasidagi siyosati.

Til va jamiyat. Sotsiolingvistika. O'zbek sotsiolingvistikasi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili" to'g'risidagi Qonuni. O'zbek tilining nufuzini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar. O'zbek tilining amaliy muammolari.

3. Lingvomadaniyatshunoslik

Paradigma tushunchasi va uning tilshunoslikdagi ahamiyati. Madaniyat va uning o'rganilishi. Lingvomadaniyatshunoslik tarixi va nazariy asoslari. Lingvomadaniyatshunoslikning tadqiqot metodlari va vazifalari. Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchaviy-terminologik apparati. Til va madaniyat munosabatlari. Lingvomadaniy birliklarning tahlili. Madaniyat va inson. Madaniyat va sivilizatsiya. Metaforalarning madaniyatdagi roli. Turli lingvomadaniyatlardagi o'xshatish va ramzlarning qiyosiy tahlili. Lakuna va frazeologizmlarning turlari. Lingvomadaniyatshunoslik maktablari. Lisoniy shaxs.

4. Pragmalingvistika.

Pragmalingvistika fanining predmeti, uni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati. Pragmalingvistika fanining predmeti va tadqiqot obyekti. Axborot uzatish va qabul qilish. Kommunikativ harakatlar. Kommunikativ - pragmatik yo'nalişning shakllanishi. Tilning ichki shakli. Til va nutq dixotomiyasi. Lisoniy muloqot maqsadi. Lisoniy tizim vazifalari. Pragmalingvistik tahlil. Assimilyatsiya (uyg'unlashish, singib ketish) va akkommodatsiya (muvofiglashish) tamoyillari. Pragmalingvistik tadqiqot. Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida. Pragmalingvistikaning metodologik negizi. Pragmalingvistikaning predmeti. Lingvopragmatika.

Lingvistik tahlilning asosiy g‘oyasi. Nutqiy akt nazariyasi va kommunikativ maqsadning ifodalaniishi. Nutqiy harakatlar. J.Ostin fikrlari. F.D.Sossyurning tilshunoslik qarashlari. Intensional tahlil. Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan iborat ekanligi. Nutqiy akt nazariyasining pragmalingvistik ta’limotda tutgan o‘rni. D.Frank “Pragmatikaning yetti aybi” ma’ruzasi. Muloqot birliklar. Lisoniy tahlil. Propozitiv va illokutiv ma’no.

Bilvosita nutqiy akt yoki semantika va pragmatika munosabati. Nutqiy muloqot matnining kognitiv xususiyati. Relevantlik hodisasi. Deyksis va nutqiy muloqot matni. Muloqot sistemasi va uning xususiyatlari haqida. Diskurs va uning xususiyatlari. Matn. Matnning lisoniy-nutqiy sistema ekanligi.

Nutqda vaziyat omili. Nutqda shaxs omili. Matn va uslub.

5. Nazariy tilshunoslik masalalari.

Tilshunoslikning tabiatini va predmeti. Til va jamiyat. Til va tafakkur. Tilshunoslikda tutash sohalar. Til va nutq antinomiyasi. Tilning belgili va belgisiz xususiyatlari. Lingvoresemiotika. Tilshunoslik va semiotika.

Til strukturasi va tizimi. Til tizimining ochiq va yashirinligi. Tilning asosiy va oraliq sathlari. Tilning morfologik sathi. Sintaktik sath. Tilning leksik-semantik sathi. Til strukturasi nazariyasi. Izomorfizm nazariyasi. Sathlar ierarxiyasi nazariyasi. Til va mantiqiy tafakkur. Til va so‘zlashuvchining ruhiy faoliyati. Til va informatsiya uzatish.

Lisoniy birliklarning mazmuniy tomoni. Til va jamiyat antinomiyasi. Til va tarix. So‘z o‘zlashtirish. Chatishish (integratsiya). Aralash tillar. Til taraqqiyotining ichki va tashqi qonunlari.

Bilish usullari va tilshshunoslik metodlari. Dialektik metod. Filologik metodning o‘ziga xos jihatlari. Lingvistik modellashtirish va uning turlari.

Tavsifiy metod. Komponent tahlil metodi. Matniy tahlil metodi. Sotsiologik metod. Logik-psixologik metod. Artikulyatsion-akustik metod. Sathlararo interpretatsiya, distributiv metod.

8. Psixolingvistika

Psixolingvistika - nutqiy faoliyat haqidagi fan. Psixolingvistikaning tushunchaviy-terminologik apparati. Psixolingvistikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi. Psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishi.

Nutq ontogenezi.

Matnni psixolingvistik yondashuv asosida o‘rganish. Matn - kommunikatsiya akti. Psixolingvistik tadqiqot metodlari.

Patopsixolingvistika. Bilingvizm va uning turlari. Madaniyatlararo muloqot. Badiiy matnning psixolingvistik tahlili.

9. Matn tilshunosligi.

Matn tilshunosligining fan sifatida shakllanishi. Matn tilshunosligi

fanining yuzaga kelishi. Matn muammosi.

Jahon tilshunosligida matn kategoriyasining o‘rganilishi. Chex tilshunosligida matn lingvistikasi muammolari. Rus tilshunosligida matn lingvistikasi fanining paydo bo‘lishi.

O‘zbek tilshunosligida matn tadqiqi. O‘zbek tilshunosligiga matn nazariyasining olib kirilishi. Matnning lingvistik tavsifi.

Matnning tarkibiy qismlari. Matnning tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalar. Ohang. Matn birliklarining o‘zaro munosabatlari. Ichki sintagmatik munosabatlar: matn birliklarining semantik-grammatik munosabati.

Matn qismlarining vertikal munosabatlari. Matnning kategorial belgilari. Matn tipologiyasi. Matn tiplari. Hajm belgisiga ko‘ra matn tiplari. Maksimal matn. Minimal matn. Makromatn. Mikromatn.

Matn va uslub. Matnning uslubiy xoslanishi. Matnning funksional tasnifi masalasi. Rasmiy matn va uning lingvistik tahlili. Rasmiy uslub. Ilmiy matn va uning lingvistik tahlili.

Publitsistik matn va uning lingvistik tahlili.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, Toshkent, 2020 yil.
2. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. T.: «Yangi asr avlodi», 2004
3. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi. -Toshkent: O‘qituvchi, 1989.-109 bet
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2002. - 166 bet.
5. Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili. - Toshkent. O‘qituvchi, 1980. - 447 b.
6. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. - Toshkent: SHarq, 2010. - 176 bet.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent: O‘qituvchi.2008.-1-kitob.
8. Mahmudov N, Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 232 bet.
9. Mahmudov N. Til. - Toshkent: Yozuvchi, 1998. - 40 bet.
10. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. - Toshkent: O‘zbekiston, 1992. - 110 bet.
11. Tursunov U., Rahmatullaev Sh., Muxtorov J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: O‘zbekiston. 1992. - 392 b.
12. G‘ulomov A, Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent: O‘qituvchi, 1987.
13. Nematov X., Bozorov O. Til va nutq. -Toshkent: O‘qituvchi, 1993. -32 bet.
14. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqalar. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksi. - Toshkent: Fan, 1992. - 292 bet.
15. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi.-Toshkent: Fan, 2008. 48 bet
16. Nurmonov.A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi.-Toshkent: Fan.2008.-176 bet.
17. Nurmonov.A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.- Toshkent: Akademnashr.2010.-112-bet.
18. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik ildizlari va yo‘nalishlari.-Toshkent: Fan. 2009.
19. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
20. Safarov Sh. Pragmalingvistika.Toshkent: Fan.2008.
21. Turniyozov N.Q. O‘zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish. - Samarqand, 1990. - 60 bet.
22. Eltazarov J. Grammatikalizatsiya hodisasi. //O‘zbek tili va adabiyoti, 1992, № 5- 6.
23. O‘zbek tili grammatikasi. I-tom. - Toshkent: Fan. 1975. - 609 b.

Internet adabiyotlari:

1. www.my.edu.uz
2. www.eduportal.uz
3. www.books.ru
4. www.oak.uz